
“Kindiktepa”dan nimalar ma'lum?

Kindiktepa – Tuyabo’g’iz suv ombori (Toshkent dengizi) hududidagi arxeologik yodgorliklardan biridir. Tuyabo’g’iz qishlog’idan 2 km janubda joylashgan.




“Kindiktepa” nomining kelib chiqishi yaqin tarixga borib taqaladi. Bu so`z o’zbek va turk tillaridagi “kindik” so’zidan kelib chiqqan. Arxeologlar tomonidan olib borilgan qazuv ishlari natijasida yodgorlikning stratigrafik rejasi Toshkentdagi Shoshtepani eslatishi ma’lum bo’ldi. Bu yodgorlik Burg’uluq madaniyatiga tegishli bo’lib, dastlab qishloq ko’rinishida, keyinroq shahar markazi darajasiga ko’tariladi. Uning nomi tarixiy manbalarda saqlanib qolmagan.

Qazilma jarayonlarida topilgan kulolchilik ashyolari e. av. I - IV asrlarga oid bo’lgan Qovunchi madaniyatini ko’rsatadi. Sopol buyumlarning dastalarida uy hayvonlarining, jumladan, buqa, qo’y boshining tasviri tushirilgan. Bu tasvirlar Qovunchi madaniyatiga tegishli aholining diniy tasavvurlarini anglatadi.



Manzilgohdan ko’plab numizmatik materiallar ham topib o’rganilgan bo’lib, u O’rta Osiyoning boshqa hududlari bilan olib borilgan keng iqtisodiy aloqalardan darak beradi.

Yodgorlikdan topilgan, Chochda zarb etilgan sosoniylar va qoraxoniylar davri tangalari hamda sirli sopol buyumlari shaharning IX—XII asrlarda yangi taraqqiyot darajasiga ko’tarilgani va savdo iqtisodiy aloqalarda muhim ahamiyatga ega bo’lganidan darak beradi.





Hozirgi vaqtda shahar atrofida va uning chekkasida suvning pasayishi natijasida ko'plab past-baland tog'lar

paydo bo'lgan. Bu yerda olib borilgan qazishmalarda Qovunchi madaniyatiga xos idishlar, temir pichoqlar, turli asboblar, zargarlik buyumlari bilan birga dafn qilingan katakombalar topildi.